PRAGMATIK PRESUPPOZITSIYA

Qo‘shmurodova Dilafro‘z Ikromjon qizi
O‘zMU O‘zbek filologiyasi, I bosqich magistratura talabasi

Annatatsiya: Ushbu maqolamizda pragmalingvistika sohasining muhim tushunchalaridan biri bo‘lgan presuppozitsiya haqida so‘z yuritdik. Tilshunoslikda presuppozitsiya masalasi o‘rganildi. Presuppozitsiyaning pragmatik tushuncha ekanligini yana bir bor izohlashga harakat qilindi.
Kalit so‘zlar: pragmalingvistika, presuppozitsiya, paradigma, pragmatik vaziyat, pragmatika, nutqiy kommunikatsiya, matn tuzilmasi, pragmatic presuppozitsiya.

Tilshunoslikda yangi paradigmaning vujudga kelishi natijasida, yangi tilshunoslik yo‘nalishlari ham rivojlandi. Bulardan biri pragmalingvistikadir. Pragmalingvistika pragmatik vaziyatni o‘rganuvchi fan sifatida maydonga keldi. Bu jarayonda e’tibor qaratilishi kerak bo‘lgan jihatlar o‘rganila boshlandi. Pragmalingvistikaning fan sifatida o‘rganilishi o‘zining atrofida u bilan bog‘liq tushunchalarning vujudga kelishiga ham sabab bo‘ldi. Pragmalingvistikadagi tushunchalardan biri pressupozitsiyadir. Pressupozitsiya termini lotincha so‘zdan olingan bo‘lib, “sub” – “osti”, “tagi” va “ponere” – “joylashtirmoq”, “joylashmoq” degan ma’nolarni anglatadi. Nutqiy kommunikatsiyaning to‘g‘ri va real amalga oshishi uchun kommunikantlar nutq momentiga qadar muayyan faktlar bilan tanish bo‘lish, umumiy vaziyat bilan bog‘liq muayyan bilim – xabardorlikka ega bo‘lishlari lozim. Ana shu faktlar, bilimlar tilshunoslikda presuppozitsiya nomi bilan umumlashtiriladi.

Tilshunoslar “presuppozitsiya” tushunchasini faylasuflardan o‘zlashtirganliklari ma’lum va falsafadan atamaning ko‘pma’noliligi, tavsifiy noaniqliklarining tilshunslikka ham ko‘chishi tabiiydir. Natijada ushbu hodisa turli ko‘rsatkichlarga nisbatan turlicha guruhlarga ajralmoqda. Buni shu tushunchani tilshunoslikka birinchilardan bo‘lib olib kirgan Pyotr Strosonning qarashlarida ham ko‘rishimiz mumkin.

Presuppozitsiyani Yevropa tilshunosligida Xomskiy, Dj Lakoff, L.Morgan, K.Kiparskiy, J.Ostin, Ch.Ozgud, K.Elbert, Van Deyk, Ye.Xill, P.Stroson, N.D.Arutyunova, N.A.Toropova va boshqalar, o‘zbek tilshunosligida esa N.Mahmudov, A.Nurmonov, U.Rahimov, Sh.Safarov, A.Hakimov va Z.Burxonovlar tomonida o‘rganilgan.

Ma’lum propozitsiya turli xil darajadagi sintaktik strukturalar orqali ifodalanadi. Masalan: gap, axborot, sodda gap tarkibidagi ayrim so‘zlar va Grammatik shakllar ham alohida presuppozitsiya ifodalashi natijasida, shu sodda gapni semantic jihatdan murakkablashtirishi ham mumkin. Bunday vaqtda so‘zlovchi va tinglovchiga tushunarli bo‘lishi uchun presuppozitsiya yordamga keladi. Mana shu sababli ham keying vaqtlarda lingvistlarni gapning presuppozitsiyasi qiziqtirib qo‘ydi. Pragmatikaning asosiy tushunchalaridan bo‘lgan presuppozitsiya haqida qarashlar mantiqshunos Frege tomonidan bildirilgan. U fikrini isbotlash uchun “Kepler bechoralikdan olamdan o‘tdi” gapini misol keltiradi. Va bu yerda presuppozitsiya sifatida Kepler degan odamning yashaganligini nazarda tutadi. G.Frege mavjudlik bildiruvchi ikkinchi hukmni presuppozitsiya deb ataydi[1].

Presuppozitsiya mant yoki nutqiy tuzilmalarning mazmunini belgilovchi hodisalardandir. U gapning to‘g‘ri qo‘llanilishi va anglanilishi uchun muhim hisoblanadi. Tinglovchi va so‘zlovchiga oldindan ma’lum bo‘lgan vaziyat, konteks kabi murakkab elementlarni o‘z ichiga olganligi bilan ahamiyatlidir.

Presuppozitsiya maxsus adabiyotlarda inferensiyaning xususiy ko‘rinishlaridan biri sifatida qaraladi va bunda ifodalanayotgan fikr – hukmning haqiqiy yoki o‘rinli ekanligi inobatga olinadi. Buning uchun esa muloqot ishtirokchilari voqelik, kechayotgan yoki xabardor qilinayotgan hodisa haqida biror bir umumiy ma’lumotga ega bo‘lishlari kerak. N.Stolneyker ta’biricha, “presuppozitsiya

[1] Norqobilova N. O‘zbek tilshunosligida presuppozitsiyaning ifodalanishi. Maqola.

talab qilinayotgan lisoniy faoliyat ijrosidan oldin implisit nazarda tutilgan propozitsiyadir”[2]. Haqiqatdan ham presuppozitsiya uchun umumiy yoki ochiq ma’no bo‘lishi kerak. Aynan o‘sha holatda so‘zlovchi va tinglovchi uchun presuppozitsiya ko‘rinib turadi. Masalan: “Anvar xonasida kalamush ko‘rdi” va “Anvar xonasida kalamush ko‘rmadi” kabi gaplarda so‘zlovchi va tinglovchi uchun xonada kalamush mavjudligi (yoki mavjud emasligi) birdek ma’lum bo‘lishi kerak.

Presuppozitsiyaning yashirin hukm, tagma’no bilan bog‘liq ekanligini bundan yuz yillar oldin olmon mantiqshunosi X.Frege aytgan edi. Haqiqatdan ham “Ra’noning opasi to‘rtta ko‘ylak sotib oldi” gapini aytish uchun so‘zlovchi “Ra’no” ismli qizning opasi borligini bilishi kerak. Bundan tashqari, so‘zlovchi Ra’noning birginasi opasi borligini va u ko‘ylak sotib olish uchun yetarli mablag‘ga ega ekanligini ham bilishi mumkin. Bu ma’lumotlarni beruvchi presuppozitsiya egasi so‘zlovchidir. Gap esa Ra’noning opasi nimadir sotib olganligi, to‘rtta ko‘ylak sotib olganligi, xarid qilingan narsa ko‘ylak ekanligi va ular uchta emas, to‘rtta ekanligi kabi ma’lumotlarni olish imkonini beradi.

Pragmatik presuppozitsiya hodisasi talqinida ikki yo‘nalish mavjud: ularning birinchisiga nutqiy harkatning samaradorligi va jo‘yaliligi asosiy mezon sifatida qaraladi. Ijro etilayotgan nutqiy faoliyat va qo‘llanilayotgan nutqiy tuzilmalar o‘rinli bo‘lgan taqdirdagina muloqot natijali bo‘lishi barchamizga ma’lum. Shuning uchun ham samaradorlik va nutqiy jo‘yalilik shartlari pragmatic pressupozitsiyaning asosiy mezoniga aylanadi.

Ikkinchi yo‘nalishdagi talqinda pragmatik presuppozitsiya muloqot ishtirokchilarining mavzu, predmet haqidagi umumiy bilimi, unga bo‘lgan ishonchi sifatida qaraladi. Bunda kommunikativ faoliyatning ichki va tashqi shart-sharoitlarning kognitiv idroki asosiy o‘rin egallaydi. Bu talqinda pragmatik pressupozitsiya matn tarkibi va qismlarining o‘zaro munosabati bilan bog‘liqligi ko‘rinadi.

Pragmatik presuppozitsiyaning matnga xosligi, konteksga oidligini inobatga olib, lisoniy birliklarning ko‘p ma’noliligi, ularning har xil matn muhitlarida turlicha mazmun ifodalash imkoniyatiga egaligini ham esdan chiqarmaslik lozim.

Presuppozitsiya hodisasi hozirgi zamon lingvistikasi bilan mantiqiy semantika o‘rtasidagi ko‘prik hisoblanadi. Bu hodisa gapning to‘g‘ri anglanishi uchun eng zarur komponentidir. Chunki presuppozitsiya gapning vaziyat, konteks hamda so‘zlovchi va tinglovchilarning oldindan ma’lum bo‘lgan umumiy bilimlari kabi elementlarni o‘z ichiga oluvchi hodisadir. Shuning ham har qanday gap presuppozitsiya hodisasi asosida tahlil etilmasa, to‘g‘ri baholanmaydi. “Presuppozitsiya” hodisasi muloqot qatnashchilarining nutqiy tejamlilikka ehtiyoji, til birliklarining nutqiy vaziyatda sintaktik sturukturaga qo‘shimcha, ikkilamchi ma’lumot yozish imkoniyatiga egaligi, suhbat qatnashchilarining bo‘lib o‘tgan yoki bo‘lajak jarayon haqidagi oldindan ma’lum bilimlari kabi omillar ta’sirida nutqiy maydonga chiquvchi hodisasidir[3].

Kim? nima? so`roq olmoshlari ishtirokidagi ritorik so`roq gaplarda ham presuppozitsiya (yashirin ma`no) mavjud bo`ladi. So`roq olmoshlari yordamida tuzilgan bunday javob talab qilmas gaplarda so`roq olmoshi nimani anglatsa, u ishora qilgan ma`no alohida ta`kidlanadi va ta`sirchanligi kuchaytiriladi. Masalan, kim? so`roq olmoshi ishtirok etgan so`roq gaplarda hamma yoki hech kim tushunchasi alohida ta`kidlanadi. Masalan, “Darhaqiqat, ozodlikdan mahrum etilgan mazlum qizlarga necha asarlar qoldirib ketgan bir shoirani kim bilmasin, ko`pchilikning aytolmagan hasratini kuylarga solib bergan shoirani kim unutsin? Oshiqidan ayrilganlar bir ma`shuqa, nomusiga to`qunilgan bir mazlumaning faryodi kimlarning yuragiga kirib o`tirmasin!”. Ushbu parchada kim so`roq olmoshi yordamida ifodalangan ritorik so`roq gap orqali “Darhaqiqat, ozodlikdan mahrum etilgan mazlum qizlarga necha asarlar qoldirib ketgan bir shoirani hamma biladi, ko`pchilikning aytolmagan hasratini

[2] Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent, 2008. – B 123.


[3] To‘xtasinova R. Tagma’no va presuppozitsiya hodisasining pragmatic tadqiqi. Maqola.

kuylarga solib bergan shoirani hech kim unutmaydi. Oshiqidan ayrilganlar bir ma`shuqa, nomusiga to`qunilgan bir mazlumaning faryodi hammaning yuragiga kirib o`tiradi!", - degan presuppozitsiya anglashilgan. Bunday ritorik so`roq gapning kesimi shaklan inkorni ifodalasada, gap mazmuman tasdiqni ifodalagan[4].

Fikrimizcha, presuppozitsiya konteksdan yoki matndan so‘zlovchiga va tinglovchiga ba’zan ko‘rinib, ba’zan ko‘rinmay turgan yashirin ma’nodir. Bu ma’noni aytib o‘tish doim ham lozim bo‘lmaydi. Axborot o‘qilgan vaqtida uning ba’zi ma’nolarini ikkisida anglaydi, ba’zi bir ma’nolarini esa faqat bittasi ya’ni, yo tinglovchi, yo so‘zlovchi anglamaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. N. Mahmudov. Presuppozitsiya va gap. –Toshkent, 1986.
2. Sh. Safarov. Pragmalingvistika. Monografiya. –Toshkent, 2008.
3. Norqobilova N. O‘zbek tilshunosligida presuppozitsiyaning ifodalanishi. Maqola.
4. Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent, 2008. – B 123.
5. To‘xtasinova R. Tagma’no va presuppozitsiya hodisasining pragmatic tadqiqi.



[4] Muhammadqodirova F. “Mehrobdan chayon” romanida presuppozitsiya ifodasi. Maqola.